

## BILIMLI YOSHLARNING DUNYO TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

*Narzullayev Sarvar*

*Ismoilov Abduqodir*

*(Toshkent, O'zbekiston)*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dunyo taraqqiyotining ilk bosqichlaridan to hozirgi kungacha bo'lgan davrda yoshlarning hissasi tahlil qilinadi. Hozirgi zamondagi tez fursatda rivojlanayotgan sohalarda yoshlar o'rnini ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, bilimli yoshlarning axborot texnologiyalaridagi, xizmat ko'rsatish sohasidagi, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishga qaratilgan ishlardagi va hattoki davlat organlaridagi roli ko'rsatilib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Taraqqiyot, axborot texnologiyalari, yoshlar, kosmos, BMT, imkoniyatlar, shaxmat.

**Abstract:** This article analyzes the contribution of youth from the early stages of world development to the present day. The role of young people in today's rapidly developing industries is shown. Also, the role of educated youth in information technology, service sector, climate change and even government agencies is shown.

**Keywords:** Development, information technologies, youth, space, UN, opportunities, chess.

Dunyo taraqqiyotining barcha davrlarida yoshlar taraqqiyotga yetaklovchi asosiy kuch hisoblangan. Imperiyalar yaratilishi, kuchli davlatlarga asos solinishi va davlat boshqaruvi qadimdan bilimli yoshlarga tayanilgan. Yoshlar o'z o'rnida yangiliklar yaratishga va noodatiy yechimlar berishga intilganlar. Hozirgi globallasuv zamonida esa yoshlarning dunyo taraqqiyotidagi o'rnini sezilarli ravishda o'sdi va o'sishda davom etyapti. Yoshlar yangi texnologiyalarga tezda moslashib, yangiliklar yaratishga o'z

hissalarini qo'shishyapti. Hozirda yoshlar axborot texnologiyalari yo'nalishidan tortib, to biznes va tibbiyot yo'nalishlarida ham o'z o'rinlariga egalar. Shu jumladan, ular yaratayotgan loyihalari hayotimizda sezilarli ta'sir ko'rsatyapti. Yoshlar (yosh fuqarolar) - o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslar hisoblanadi [1]. Aynan yoshlik davri bolalik va katta hayotga qadam qo'yishgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Bu yoshda insonlar ta'lim olib, o'zlarining dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda yangicha loyihalarni amalga oshirishadi. Tadqiqotlarga ko'ra, insonlar 20 yoshliklarida o'zlarining eng kreativ g'oya va fikrlariga ega bo'lishadi [2]. Aynan shu yoshda inson - o'zgacha loyihalar yaratish va ularni amalga oshirishga qodirdir. Yetarlicha bilimga ega yoshlar dunyoda ro'y berayotgan jarayonlarga nisbatan o'z fikriga ega bo'ladi, jamiyatda inson hayot sifatini yaxshilashga hissa qo'shadigan innovatsiyalar yaratish va ko'plab muammolarga yechim berishga intilishadi.

[www.lifehack.org](http://www.lifehack.org) saytining ma'lumotlariga ko'ra, Mark Zukkerberg 19 yoshida Facebook kompaniyasiga asos soldi [3]. Bu loyiha bir necha yildan keyin insonlar eng ko'p ma'lumot almashadigan platformaga aylandi. Pavel Durov 22 yoshida VKontakte ilovasini ishga tushirdi, keyinchalik ilova qiymati 3 mlrd dollardan oshdi [4]. Aynan shu ilova, keyinchalik o'zining xatolarini tushinib yetishga va yanada mukammal bo'lgan Telegram ilovasini yaratishga yordam berdi. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar va turli xil dasturlar yaratishda eng oldingi o'rinlarda turadi, ularning qiziquvchanligi va noodatiy usullardan foydalanishi ular yaratayotgan dasturlarning ommabop bo'lishini kafolatlaydi. 1961-yil 12-aprel kuni Yuriy Alekseyevich Gagarin 27 yoshida kosmosga chiqdi [5]. Bu insoniyat tarixida ilk bor insonning kosmosga chiqishi bo'ldi, shundan so'ng kosmonavtika sohasi rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tdi. Dunyo bo'ylab yoshlar o'qishdan tashqari o'zlarining yangi loyihalarini amalga oshirishyapti. Ularishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarida juda kata yutuqlarga erishishgan. Yoshlar hozirda restarant, mehmonxona va hattoki shaxsiy banklarga ham egalik qilishyapti. Bundan tashqari ko'pchilik yoshlar Birlashgan Millatlar Tashkilotiga so'zga chiqib global muammolarga o'zlarining yechim va takliflarini

ilgari surishyapti. 2019-yilda Greta Tunberg BMTning iqlim o'zgarishlariga qaratilgan sammitiga so'zga chiqib, insonlar tabiatni og'ir ahvolga solgani, endi esa pul haqida emas, tabiat haqida ko'proq o'ylashimiz kerakligi haqida gapirgandi. Greta Tunbergning: "Biz ertangi kun yo'qdek yashashni davom ettira olmaymiz, chunki ertangi kun bor", degan jumlasini sammitning asl maqsadini ochib berdi [6].

Alisher Zafar o'g'li Sa'dullayev— O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlisi Senatining eng yosh a'zosi. Hozirda Yoshlar ishlari agentligi direktori va O'zbekiston shaxmat federatsiyasining raisi. Alisher Sa'dullayev Yoshlar ishlari agentligi nomidan yoshlarga juda ko'plab imkoniyatlaryaratyaptilar, shu jumladan, 2021-yilda bir necha bor Yoshlar forumlari o'tkazilindi

[7]. Wiki stipendiya loyihasi ishga tushgandan so'ng, o'zbekcha vikipediya kuchli 50 talikka kirdi [8].

O'zbekiston shaxmat federatsiyasi raisligi davrida O'zbekiston terma jamoasi Hindistonda bo'lib o'tgan xalqaro shaxmat olimpiadasida 1-o'rinni egalladi va Alisher Sa'dullayevning sa'y-harakatlari tufayli xalqaro shaxmat olimpiadasining keyingi bosqichi O'zbekistonda, Samarqand shahrida o'tkaziladigan bo'ldi [9].

**Xulosa:** Yoshlarning dunyo taraqqiyotiga ta'siri benihoya katta. Ular har bir sohada o'zlarining qobiliyatlarini ko'rsata bildilar. Barcha islohotlarning bardavomligini yoshlarni qo'llab-quvvatlash siyosatida ko'rayotganining yaqqol tasdig'i sifatida boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim islohotidir. Bu islohotlarning yutug'i esa, bu sohadagi korrupsiyaga qarshi kurashni, hamda yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini ortirmoqda. 2021-yildan boshlab oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida "Bo'lajak olim" tanlovini tashkil qilish orqali yoshlarning eng yaxshi innovatsion hamda startap loyihalariga 50 milliard so'm mablag' yo'naltirish bo'yicha ko'rsatma berilishi ham diqqatga sazovordir. Kelgusi o'quv yilidan boshlab respublikamizdagi xorijiy oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun ham Prezident va davlat stipendiyalari joriy etilishi yoshlarni yuksak axloq va kuchli bilim sohibi hamda vatanparvarlik ruhida voyaga yetishida yaratilgan

imkoniyatning muvaffaqiyat asosi,- degan ishonchdamiz. Ishonchim komilki, bunday imkoniyat va imtiyozlarga avvalo yangi Renessans poydevorining bunyodkorlari sazovor bo'ladi,- deb ta'kidlagan davlat rahbarining ishonchi, yangi yil arafasida yoshlar uchun yaratilgan bunday imkoniyatlar yangi O'zbekistonning Renessans yo'lidagi yangi va ildam qadami bo'ldi. Bilimli yoshlarning texnologiyalarga bo'lgan qiziqishi tufayli texnologik rivojlanish dunyoda juda tez fursatda o'sib boryapti. Yosh olimlar biologiya, tibbiyot, fizika yo'nalishlarida qilayotgan yangiliklari sohalarda sezilarli o'zgarishlarga sababchi bo'lyapti. Bilim olishda davom etayotgan va o'zlarini yetarlicha ko'rsata olmagan yoshlar kelajakda, albatta, innovatsiyalar yaratishga, global muammolarni yechishga va dunyoda hayot sifatini oshirishga bel bog'laydilar va dunyo taraqqiyotini yanada oldinga yetaklaydilar.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. <https://lex.uz/docs/-3026246>
2. <https://www.bbc.com/news/newsbeat-48077012>
3. <https://www.lifehack.org/588440/16-young-and-successful-entrepreneurs-who-prove-that-age-is-nothing-but-a-number>
4. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Pavel\\_Durov](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Pavel_Durov)
5. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Yuri\\_Gagarin](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Yuri_Gagarin)
6. <https://www.waterford.org/education/kids-who-changed-the-world/>
7. Образовательные возможности новых информационных технологий в обучении иностранным языкам в вузе  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=5hz6D58AAAAJ&citation\\_for\\_view=5hz6D58AAAAJ:UeHWp8X0CEIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=5hz6D58AAAAJ&citation_for_view=5hz6D58AAAAJ:UeHWp8X0CEIC)
8. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Alisher\\_Sa%CA%BCdullayev](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Alisher_Sa%CA%BCdullayev)
9. [https://t.me/alisher\\_sadullaev/3244](https://t.me/alisher_sadullaev/3244)
10. [https://t.me/alisher\\_sadullaev/2781](https://t.me/alisher_sadullaev/2781)